

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI
TARBIYALANUVCHILARDA EKOLOGIK BILIMNI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI

Jo'rayeva Dilnoza O'ktam qizi

Buxoro davlat pedagogika insituti

Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi.

***Annotatsiya.** Maktabgacha ta'lim tashkiloti hozirgi vaqtda ekologik, sanitariya-gigiyenik bilimlarning targ'iboti markaziga aylanishi, bolalarni ekologik-gigiyenik bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishning muhim omillaridan biri ota-onalarning ekologik-gigiyenik bilimlarga ega bo'lishlariga erishish, ana shu maqsadda ota-onalar o'rtasida tibbiy-ekologik bilimlarni targ'ib etish maqsadga muvofiqdir.*

***Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim, oila, mahalla, o'yin, maktab, bolalar, aqliy tarbiya, rivojlanish, bilim, ko'nikma, malaka, tarbiyachi, ekologiya, ekologik tarbiya, sog'lom turmush tarsi.*

ПЕРСПЕКТИВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ
У ВОСПИТАННИКОВ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ
ОРГАНИЗАЦИЙ

Жураева Дилноза Уктам кизи

Бухарский государственный педагогический институт

Преподаватель кафедры дошкольного образования.

***Аннотация.** Одним из важных факторов современного преобразования дошкольных образовательных организаций в центры пропаганды экологических и санитарно-гигиенических знаний, вооружения детей эколого-гигиеническими знаниями, умениями и навыками является приобретение эколого-гигиенических знаний родителями. С этой целью целесообразно пропагандировать среди родителей медицинские и экологические знания.*

Ключевые слова: Дошкольное образование, семья, соседство, игра, школа, дети, интеллектуальное развитие, развитие, знания, навыки, квалификация, педагог, экология, экологическое образование, здоровый образ жизни.

PROSPECTS FOR DEVELOPING ECOLOGICAL KNOWLEDGE IN STUDENTS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Jurayeva Dilnoza Oktam kizi

Bukhara State Pedagogical Institute

Teacher of the Department of Preschool Education.

Annotation. One of the important factors in the current transformation of preschool educational organizations into centers for the promotion of environmental, sanitary and hygienic knowledge, and in equipping children with environmental and hygienic knowledge, skills and qualifications, is the acquisition of environmental and hygienic knowledge by parents. For this purpose, it is advisable to promote medical and environmental knowledge among parents.

Key words: Preschool education, family, neighborhood, play, school, children, intellectual development, development, knowledge, skills, qualifications, educator, ecology, ecological education, healthy lifestyle.

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng o‘tgan vaqt mobaynida Respublika hukumati tomonidan mintaqada yuzaga kelgan ekologik xavfni bartaraf etish, bu borada barqarorlikka erishish, aholi o‘rtasida keng tarqalayotgan hamda ekologik muammolar asosida kelib chiqayotgan turli kasalliklarning oldini olish, aholi, shu jumladan, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi g‘oyalarini targ‘ib etish, ularda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mazkur e‘tiborning yorqin dalili sifatida O‘zbekiston Respublikasida “EKOSAN”, Respublika hukumatining tashabbusi bilan ”Orolni qutqarish” Xalqaro jamg‘armasining tashkil etilishi, shuningdek, “Atrof-muhitni muhofaza qilish Milliy dasturi”, “Sog‘lom avlod Davlat dasturi”, “Ona va bola Davlat dasturi”

kabilarning qabul qilinganligi, “Ekologik ta’lim-tarbiya Kontseptsiyasi”ning ishlab chiqilganligi kabi holatlarni keltirib o‘tishimiz maqsadga muvofiqdir. Ekologik-gigiyenik tarbiya uzluksiz bo‘lib, u insonning butun hayoti davomida amalga oshirilishi kerak. Ekologik tarbiya umumiy tarbiyaning yangi shakli va tarkibiy qismi bo‘lib, Maktabgacha ta’lim tashkilotdagi barcha fanlarni o‘qitish, mashg‘ulotdan va Maktabgacha ta’lim tashkilotidan tashqari jarayonlarda ham amalga oshirilishi zarur.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalarining ekologik-gigiyenik bilimlardan to‘laqonli xabardor bo‘lishlari tobora keskin tus olib borayotgan ekologik xavf va uning oqibatida insonlarda yuzaga kelayotgan turli kasalliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq Maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalarining bu boradagi bilimlari yuqori darajada emas. Buning bir necha sabablari bo‘lib, ulardan biri ekologik-gigiyenik bilimlar asoslari xususida ma’lumot beruvchi manbalarning taqchilligi yoki mavjud adabiyotlarning aksariyat hollarda rus tilida ekanligidir. Rus tilida nashr etilgan adabiyotlar mazmunini o‘rganish muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Hozirgi kunda Maktabgacha ta’lim tashkiloti larida ekologik-gigiyenik tarbiya ishlari orqali sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va sog‘lom avlodni tarbiyalash masalalariga Respublikamiz rahbariyati tomonidan katta e’tibor berilmoqda. Buni biz Respublikamizda dunyoda birinchi bo‘lib “Sog‘lom avlod uchun” ordeni va shu nomdagi Xalqaro jamg‘armaning tashkil qilinishida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-farmonida ham ko‘zda tutilgan hisoblanadi. Bugungi kunda ekologik xavfning oldini olish, tabiatni asrash va uning mavjudligini ta’minlash masalasi xalqaro maydonda o‘ziga xos dolzarblik kasb etmoqda. Ekologik muammolarning ijobiy hal etilishi nafaqat tabiatni asrash, balki inson salomatligini saqlashda ham alohida ahamiyatga ega.

Asrlar davomida tabiatni asrash, uning boyliklaridan isrofgarchilikka yoʻl qoʻymay foydalanish, inson salomatligini taʼminlash va ushbu jarayonda tabiatning begʻaraz yordamiga murojaat etish masalalari jamiyatning ilgʻor kishilari, xususan, allomalarning diqqat-eʼtiborida boʻlib kelgan.

Muammoga oid adabiyotlar mazmuni bilan tanishish shundan dalolat berdiki, kishilar oʻrtasida ekologik va gigiyenik bilimlarni targʻib etish, bu boradagi taʼlimiy va tarbiyaviy qarashlar asosida ularda muayyan bilimlarning hosil boʻlishiga erishish ijtimoiy zaruriyatga aylangan.

Markaziy Osiyoda ekologik va gigiyenik bilimlarning rivojlanishi oʻziga xos tarixga ega. Qadim zamonlarda Oʻrta Osiyo aholisi qaysi hayvon va oʻsimlik mahsulotlaridan isteʼmol qilish mumkinligi, suv manbalarini tanlashda va issiq iqlim sharoitida turar joylarni qurish, kiyinish toʻgʻrisida maʼlumotlarga ega boʻlishgan.

Oʻsha davrlarda odamlarda kasallikning kelib chiqishi toʻgʻrisida yetarli tushuncha boʻlmaganligi sababli empirik holda xalq tabobati boʻlgan. Xalq tabobatiga oid maʼlumotlar uzoq muddat davomida avloddan avlodga oʻtib, kelgusida tibbiyot kasbiga aylanish uchun asos boʻlgan. Lekin, koʻpchilik aholi xalq tabobati hamda u bilan shugʻullanuvchi kishilar (tabib, eshon, kinnachi va hokazolar) yordamida muayyan kasallikni davolash bilan kifoyalanishgan. Bu kabi chora-tadbirlar asosida asosan maʼlum kasallikka emas, kasallikning ayrim koʻrinishlariga qarshi davo qidirilgan.

Feodalizm davrida Oʻrta Osiyoda boshqa fanlar qatori tibbiyot fanining ham rivojlanishi kuzatiladi. Mazkur fanning rivoji xalqlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarning rivojlanishi, ushbu munosabatlarning ravnaqida muhim oʻrin tutgan Buyuk Ipak yoʻlining aynan Markaziy Osiyo hududidan oʻtishi oʻziga xos ahamiyatga ega boʻlgan.

Arxeologik izlanishlar natijalari Markaziy Osiyo hududida tibbiyot fani juda qadim zamonlarda ham rivojlanganligini isbotlagan. Chunonchi, Fargʻona viloyati hududida topilgan pishgan loydan yasalgan vodoprovod trubalarining

qoldiqlari juda qadim zamonlardayoq ushbu hududda yashagan kishilarning ichimlik suvi va uning saqlanish holati, muhofazasiga alohida e'tibor qaratganliklaridan dalolat beradi.

Markaziy Osiyo xalqlarining tibbiyotga oid yozma ma'lumotlari miloddan avvalgi X-IX asrlarga tegishli. Ana shunday ma'lumotlar "Avesto" asarida hamda o'z ifodasini topgan. Ushbu asarda diniy qarashlar, urf-odatlarining mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi g'oyalar bilan bir qatorda gigiyenik ma'lumotlar ham berilganki, bu holat miloddan avvalgi VII-I asarlarda ham inson salomatligini saqlash borasidagi bilimlar bayon etiladi.

"Avestoda" yer, suv, zamin, xona, badan, kiyim-kechak, oziq-ovqatlarni toza tutish va saqlashga alohida e'tibor berilgan. Unda go'ristonlarni shahar va qishloqdan yiroqda tashkil etish, uni o'rab qo'yish, murdashuylarni maxsus tozalikka rioya qilishi, murda tekkan libos, yerlarni qatron qilish (suvga to'ldirib bo'shatish, yomg'ir suvi bilan yuvish, to'ldirib bo'shatish ta'kidlanadi... Inson yashayotgan xonadagi obreznada yuvinish va cho'milish qat'iy man etilgan».

"Avesto" asarida, shuningdek, atrof-muhit muhofazasini ta'minlash hamda inson salomatligi yo'lida ma'lum chora-tadbirlarning ko'rilishi maqsadga muvofiqligi aytib o'tiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022— 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son)

2. I.V. Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V. Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi T: 2022. 1-81-b;

3. Jo'rayeva Dilnoza O'ktam qizi „ Mechanism of International Assessment of Professional Qualifications of Future Teachers and Pedagogues in the Conditions of Digitization“. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied

Sciences | e-ISSN: 2792-3983 | www.openaccessjournals.eu | Volume: 3 Issue:12.
5-9p

4. Jo‘rayeva Dilnoza O‘ktam qizi ,RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BO‘LAJAK TARBIYACHI PEDAGOGLARNING KASBIY MALAKALARINI TA'LIMDA BAHOLASH''.Spanish international scientific online conference PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE.Part7 December 29th COLLETIONS OF SCIENTIFIC WORKS MADRID 2023 97-100b.
<https://interonconf.org/index.php/spa/article/view/10145>